

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53407-4.01

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**BANK ISHI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340700 - "Bank ishi"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: prof. Abdullaeva Sh.,
k.o'q. Usmonova N.

Taqrizchilar: dots. Norqobilov S.,
dots. Murugova I.

"Bank ishi" fani etakchi mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, unda banklar, ularni tashkil qilish va faoliyatini olib borishning me'yoriy va huquqiy sohalari, tijorat banklarining resurslari, passivlari va aktivlari, ular mutanosibligini ta'minlash, banklarning daromadlari va xarajatlari, foydasi, mijozlarni qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlash asoslari, banklarning kredit, investitsiya portfellarini boshqarish, bank risklari va ularni boshqarish bilan bog'liq mavzular yoritiladi.

"Банковское дело" является одним из ведущих профилирующих предметов. В нём освещаются вопросы, связанные с правовой деятельностью коммерческих банков, формированием ресурсной базы, а также строением капитала банка, дается классификация активов, их оптимальные размещение. Большое внимание уделяется вопросам организации кредитного процесса в коммерческих банков: формированию пакета документов, анализу кредитоспособности, порядку выдачи и погашению кредита, мониторингу ссудной задолженности и т.д. Особая роль уделяется управлению рисками. Кроме того, освещаются вопросы организации коммерческой деятельности банков, их регулирование со стороны Центрального банка, организация расчетных операций и т.д.

Banking is one of the favorite professional subject, in which appear the establishment of Bank and the resources of Commercial Banks, suppling the proportion of assets and and Passives, the banks income and revenue,benefit,giving short-term and long-term credit to the customers, managing credit and ivestment partfolio and the management of bank's risks.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

"Bank ishi" fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartiga binoan "Bank ishi" fani o'qitiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etishi bilan bog'liq jarayonlarini yuzaga keltirdi.

O'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning tutgan o'rni hamda ahamiyati muhimligi, bank tizimini takomillashib borishi ushbu sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.

Shunga ko'ra, bu fanning maqsadi va vazifasi talabalarni bank tizimida mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Shuningdek, qo'yilgan masala echimining asosi talabalarni faqatgina bank operatsiyalarini o'tkazishning texnik tomoni bilan tanishtirish bo'lib qolmasdan, balki ularni kredit xisob kitoblar mexanizmini bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalariga asoslangan holda olib borishni o'rgatishga qaratilgan. Bular bo'lajak mutaxassislarning bankning aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirishda, amaliyotdagi mavjud kamchiliklarning bartaraf etish yo'llarini o'ylab topish, hamda bank ishini takomillashtirishga qarata faoliyat olib borishga asos yaratadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

"Bank ishi" fani bank tizimi uchun iqtisodchi bankirlarni tayyorlashda etakchi maxsus fan hisoblanadi. Unda bank ishining aniq masalalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditni rivojlantirish qonuniyatlari, kreditning asosiy tamoyillari asosida xo'jalik sub'ektlarini kreditlash, kredit resurslari va kreditlarni boshqarish asoslari, mijozning kreditga layoqatliligi, likvidliligi, tijorat banklarining likvidligi, foydasi, valyuta va boshqa operatsiyalarini, banklarning foiz siyosati va risklari kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Shundan kelib chiqib:

- talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi;
- o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlashi;
- fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba bank faoliyatida bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishni bilishi lozim.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

"Bank ishi" kursi institutda o'rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Bu fan "Pul, kredit va banklar" kursining nazariy jihatlariga asoslanib bankdagi jarayonlarni amaliy jihatdan o'rganishni davom ettiradi.

"Bank ishi" fanini chuqur va mukammal egallab olish uchun talabalar quyidagi fanlar bo'yicha bilimlar olishlari zarurdir: "Monetar siyosat va pul-kredit orqali muvofiqlashtirish", "Bank auditi", "Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika", "Iqtisodiy tahlil", "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Bank menejmenti va marketingi" va boshqalar.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Talabalar o'qish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda ba'zi tijorat banklar faoliyatida qo'llaniladigan mijozlarni kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish, xo'jalik sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

Talabalar Respublika tijorat va o'quv banklarida sayyor darslar o'tib, bank ishi bo'yicha nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lab o'rganib boradilar. Fanni o'rganish 6, 7 va 8-semestrlarni o'z ichiga oladi va u tarkibiy jihatdan ma'ruza, amaliy darslar nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash davrlaridan iborat.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur fanga 276 soat hajmda vaqt ajratilgan. Shundan 92 soati ma'ruza, 92 soati amaliy mashg'ulotlar. Bundan tashqari, mustaqil ta'limga 92 soat xajmda vaqt ajratilgan. Bank ishi fanidan olgan bilimlar talabalarning oliy o'quv yurtini tamomlaganidan so'ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida ham qo'l keladi.

2. FAN DASTURI

Bank ishi fanining maqsadi va vazifalari

Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda kursning maqsadi va vazifalari.

Banklar va O'zbekiston Respublikasi bank tizimi

Banklar, bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging vazifalari va funktsiyalari.* Tijorat banklari va ularning tashkiliy tuzilishi.

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va iqtisodiy asoslari

Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari. Tijorat banklari faoliyatining tamoyillari. Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy asoslari. Buxgalteriya balansi va uning tavsifi. Tijorat banklarining funktsiyalari.

Tijorat banklarining resurslari va bank kapitali

Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi. *Tijorat banklarining o'z mablag'lari.* Tijorat bankingkapitali va uning tarkibi. *Jalb qilingan mablag'lar.* Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash tartibi. Tijorat banklarining Markaziy bank bilan aloqasi.

Bank aktivlari, ularning tarkibi va sifati

Bank aktivlari, ularning mohiyati va tarkibi. Bank aktivlarining sifati darajasi. Riskga tortilgan aktivlar. Bank aktivlarini daromad keltirish bo'yicha tasniflash.

Tijorat banklarining daromadlari va foydasini shakllantirish

Tijorat banklarining daromadlari va ularning turkiumlanishi. Tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlari. Tijorat banklarining xarajatlari va ularning tarkibi. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari. Operatsion xarajatlar. *Tijorat banklarining foydasi va uni hisoblash.* Tijorat banklarining daromadini taqsimlash.

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi haqida tushuncha. *Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari.* *O'zbekiston tijorat banklarini likvidlik holati va uni boshqarish.* Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning bank likvidligiga ta'siri.

Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari

Banklarining passiv operatsiyalari, ularning turlari va tavsifi. Tijorat banklarining depozit va nodepozit operatsiyalari. Tijorat banklarining kredit potentsiali va uning passiv operatsiyalarga bog'liqligi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari.

Tijorat banklarining kredit siyosati

Kredit siyosati va uning mohiyati, maqsad va vazifalari. *Tijorat banklarining kredit siyosati, uning xususiyatlari va mezonlari.* Tijorat banklari kredit siyosatining bajarilishi ustidan nazorat.

Aylanma mablag'lar va mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari

Aylanma mablag'lar tushunchasi va uning tarkibi. *Aylanma mablag'larni tashkil etish manbalari va kreditning roli.* Kreditga layoqatlilik tushunchasi, uni baholashning asosiy manbalari. Xorijiy davlatlarda mijozning kreditga layoqatliligini baholash amaliyoti. *Mijozning kreditga layoqatliligining asosiy ko'rsatkichlari.* Mijozning kreditga layoqatliligini qo'shimcha ko'rsatkichlari. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlar asosida kreditlash masalalari.

Qisqa muddatli kreditlashni tashkil etish asoslari

Kreditlash shartlari (tamoyillari). Kredit mexanizmi va uning elementlari. Kreditlash ob'ekti va sub'ekti. *Kreditlash usullari (metodlari) Ssuda schetlarining turlari.* Tijorat banklarining kredit siyosati va uning mazmuni. Kreditlardan foydalanish jarayoni ustidan tijorat banklarining olib boradigan nazorati.

Qisqa muddatli kreditlashni jarayoni

Kredit paketini tashkil qilish va uning tahlili.

Ssuda hisob varag'idan kredit berish va qaytarish tartibi. Kredit monitoringi. Kredit shartnomasi, uning mazmuni va ahamiyati. Kredit shartnomasi bajarilishi ustidan nazorat va ko'riladigan choralar. Kredit shartnomasini tuzish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi.

Kreditning ta'minlanganligi va uning shakllari

Kreditning ta'minlanganligi tushunchasi va uning ahamiyati. Ta'minlanganlikning shakllari. Kreditning qaytarilishida garovning o'rni. Kafillik va kafolat. Bank kafolati va uning turlari. Ta'minlanganlikning boshqa shakllari.

Alohida kredit turlari

Alohida schetdan kreditlash asoslari: kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash. Kredit liniyasini ochmasdan kreditlash.

Kontokorrent schetidan kreditlash. Overdraft bo'yicha kreditlash. Lombard kredit va undan foydalanish imkoniyatlari. Iste'mol krediti va uning ahamiyati. *Ipoteka krediti va undan foydalanish imkoniyati*. Iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlashning xususiyatlari.

Kichik va o'rta biznes, tadbirkorlik faoliyatini kreditlash

Kichik va o'rta biznes haqida tushuncha va uning Respublika iqtisodiyotidagi o'rni. Kichik va o'rta biznesni kreditlashni tashkil qilish asoslari. Xalqaro moliya tashkilotlari va nobyudjet jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan kreditlash. *Kichik va o'rta biznes sub'ektlari va tadbirkorlikni mikrocreditlash. Oilaviy tadbirkorlikni kreditlash qoidalari*.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturi va uning yo'nalishlari. Investitsion loyiha, uning mohiyati va turlari. *Investitsion loyihalarni baholash va tahlil etish*. Loyihalarni moliyalashtirish manbalari. Loyihalar monitoringi va ularning turlari.

Naqd pulsiz hisob kitoblar va banklararo vakillik munosabatlari

Naqd pulsiz hisob kitoblarni tashkil qilish asoslari. Depozit, ssuda va boshqa hisob varaqlari. To'lovlar navbati. To'lov topshiriqnomasi, akkreditiv, inkassa bo'yicha hisob-kitobi. Naqd pulsiz hisob kitoblar ustidan bank nazorati.

Tijorat banklarining faktoring va lizing operatsiyalari

Tijorat bankining faktoring operatsiyalari va ularning mohiyati. Faktoring operatsiyalarining turlari. *Faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi*. Lizing operatsiyalari va ularning mohiyati. Lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va ular bilan bog'liq risklari. Banklarning forfeyting operatsiyalari. Faktoring va forfeytingning farqlari. Banklarning ipoteka operatsiyalari.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari

Qimmatli qog'oz tushunchasi va uning turlari. Qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari*. Qimmatli qog'ozlarning balans va nobalans operatsiyalari. Fond birjalari va unda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari

Valyuta va valyuta kursi tushunchasi. *Valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari*. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning tartibi va uning xususiyatlari.

Tijorat banklarining foiz siyosati

Kredit uchun foiz tushunchasi. *Kredit narxi. Foiz stavkalarining turlari.* Tijorat banklari foiz siyosati. Marja va uning hisoblanishi.

Bank risklari va ularning turlari

Bank riski tushunchasi va uning turlari. Kredit riski va uni hisoblash yo'llari. Bank risklarini boshqarish masalalari. Tijorat bankining kredit portfelining sifat jihatdan tahlili va uning kredit risklarini minimallashtirishdagi o'rni.

Bankning yangi xizmatlari va innovatsion moliyaviy instrumentlari

Plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati. Qimmatliklarni saqlash. Banklarning forfeyting operatsiyalari Optsionlar, fyucherslar, svop operatsiyalari. Mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko'rsatish.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAVZULARI

Banklar va O'zbekiston Respublikasi bank tizimi

Banklar faoliyati haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funktsiyalari. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining turlari, vazifalari va ularning funktsiyalari*. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jahon moliya bozoridagi o'rni.

Tijorat banklari va ular faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarini tashkil etish bo'yicha asosiy talablari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari kapitali etariligidagi qo'yilgan talablar. Tijorat banklarining operatsiyalari. Tijorat banklarining ustav va boshqa fondlarini yaratish. Mablag'larni taqsimlash va ularni shakllantirish manbalari. Tijorat banklarini tugatishning huquqiy asoslari.

Tijorat banklarining resurslari va bank kapitali

Tijorat banklarining resurslari va ularni iqtisodiy mohiyati. Tijorat banklari resurslarining tarkibi va tavsifi. Tijorat banklarining o'z mablag'lari*. Bank ustav kapitali va uning tarkibi. Rezerv fondi va uning zaruriyati. Jalb qilingan mablag'lari*. Tijorat banklarining resurslarini ko'paytirish yo'llari. Tijorat banklarining Markaziy bank bilan aloqasi.

Bank aktivlari, ularning tarkibi va sifati

Bank aktivlarining tarkibiy tuzilishi va uning ahamiyati. Bankning daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlari. Riskli va risksiz aktivlar. Aktivlar sifatini tasniflash va ular bo'yicha zahiralarni yaratish. Bank aktivlarining sifat darajasi va ularning tahlili*.

Tijorat banklarining daromadlari va foydasini shakllantirish

Tijorat banklarining daromadlari. Foizli daromadlar va foizsiz daromadlar. Tijorat banklarining xarajatlari. Tijorat banklarining foydasi va uni hisoblash*. Tijorat banklarining sof foydasi. Tijorat banklari daromadlarining bank likvidligini ta'minlashdagi o'rni. Mavzu bo'yicha masalalar echish.

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidligi

Banklarning to'lovga layoqatliligi va likvidligi haqida tushuncha va unga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining likvidlik holati va uni boshqarishga qo'yilgan talablar. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari va ularning holati*. Jahon amaliyotida tijorat banklarining likvidligini boshqarishda SAMEL tizimi va uni O'zbekiston Respublikasi banklarida qo'llanilishi. Mijozni kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini tijorat banklarining likvidlikligiga ta'siri. Xorijiy davlatlar amaliyotida banklarning likvidligini baholash. Masalalar echish.

Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari

Tijorat banklarining passiv operatsiyalari ko'lami. Passiv operatsiyalarining shakllari va ularning tavsifi. Depozit va nodepozit operatsiyalari*. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularning turlari*. Banklarda aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish. Situatsion masala echish.

Tijorat banklarining kredit siyosati

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari kredit siyosatiga qo'ygan talablari. Tijorat banklari kredit siyosatining tarkibiy tuzilishi va uning asosiy yo'nalishlari. Kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va uning mezonlari.* O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit siyosatining bajarilishini ta'minlashning ahamiyati.

Aylanma mablag'lar va mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari

Xo'jalik sub'ektlarini aylanma mablag'lari haqida tushuncha va uning tarkibiy tuzilishi. Aylanma mablag'larni shakllantirish manbalari. Aylanma mablag'larni to'ldirishda bank kreditining tutgan o'rni va uni amalga oshirish tartibi. Aylanma mablag'lardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari. Kreditga layoqatlilik

tushunchasi. Mijozning kreditga layoqatliligining asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlari, uning ahamiyati*. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari asosida kreditlash masalalari echish.

Qisqa muddatli kreditlashni tashkil etish asoslari

Xo'jalik sub'ektlariga tijorat banklari tomonidan qisqa muddatli kreditlarni berishni tashkil etishni huquqiy asoslari. Kredit mexanizmi va uning elementlari*. Kreditlash ob'ekti va sub'ekti. Ssuda schetlarining turlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kredit hujjatlarini yuritishga qo'yilgan talablar. Kreditlardan foydalanish jarayoni ustidan tijorat banklarining olib boradigan nazorati. Mavzu bo'yicha masala echish.

Qisqa muddatli kreditlash jarayoni

Tijorat banklarida kredit paketini tayyorlash va uning tahlili*.

Ssuda hisob varag'idan berilgan kreditlarni rasmiylashtirish va qaytarish tartibi*. Kredit monitoringi. Tijorat banklari bilan mijoz o'rtasida kredit shartnomasini tuzish tartibi, mazmuni va uning ahamiyati. Tomonlarning huquqiy majburiyatlari. Kredit shartnomasi bajarilishi ustidan nazorat qilish va ko'riladigan choralar. Mavzu bo'yicha masala echish.

Kreditning ta'minlanganligi va uning shakllari

Kreditlash jarayonidagi kreditning ta'minlanganligi va uning mohiyati*. Kreditni ta'minoti sifatida garovning tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari. Tijorat banklarining ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalariga qo'yilgan talablar*. Kreditning ta'minlanganligini kafillik, kafolat va boshqa shakllari.

Alohida kredit turlari

Tijorat banklari tomonidan alohida schyotdan kreditlash tartibi. Mijozlarni kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash tartibi*. Kredit liniyasini ochmasdan kreditlar berish tartibi. Kontokorrent schetidan kreditlash. Tijorat banklarida overdraft bo'yicha kreditlashni amalga oshirish. Lombard kreditining o'ziga xos xususiyatlari va undan foydalanish imkoniyatlari. Iste'mol krediti va uning mohiyati*. Ipoteka kreditlari va uning ob'ektiv zaruriyati. Iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Kichik va o'rta biznes hamda tadbirkorlik faoliyatini kreditlash

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari. Kichik va o'rta biznesni mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni. Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni kreditlashni amalga oshirish tartibi. Kichik

va o'rta biznesni, tadbirkorlik faoliyatini xalqaro moliya tashkilotlari va nobyudjet jamg'armalari hisobidan kreditlash. Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznes sub'ektlarini, tadbirkorlik faoliyatini mikrokreditlash*. Mavzu bo'yicha masala echish.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturi tuzilishi haqida tushuncha va uning yo'nalishlari. Investitsion loyiha tarkibi, turlari va unga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasida investitsion loyihalarni baholash usullari va tahlil etish*. Loyihalarni moliyalashtirish manbalari. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida yirik investitsiya loyihalariga sinditsiyalashgan kreditlarni berish va qaytarishni rasmiylashtirish tartibi. Loyihalarni monitoring qilish va uning usullari. Situatsion masala echish.

Naqd pulsiz hisob kitoblar va banklararo vakillik munosabatlar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan naqd pulsiz hisob kitoblarni tashkil qilishning huquqiy asoslari. Banklararo vakillik munosabatlari o'rnatishning ob'ektiv zaruriyati. Tijorat banklarida yagona vakillik hisob varag'ini qo'llanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Depozit, ssuda va boshqa hisob varaqlarini yuritish tartibi. To'lovlar navbati*. Naqd pulsiz hisob kitoblar ustidan bank nazoratini o'rnatishning zarurligi.

Tijorat banklarining faktoring va lizing operatsiyalari

O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi. Tijorat banklari faktoring operatsiyalarining turlari va uning ahamiyati*. Banklar tomonidan faktoring operatsiyalarini hisobini yuritilishi. Lizing operatsiyalari va ularning mazmuni. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan moliyaviy lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi* va ular bilan bog'liq risklar. Tijorat banklari tomonidan faktoring va lizing operatsiyalari ustidan bank nazoratini amalga oshirilishi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari

Qimmatli qog'ozlar tushunchasi va uning turlari. Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga qo'yilgan talablar. Qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari*. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarni amalga oshirishdagi cheklovlar. Qimmatli qog'ozlarning balans va nobalans operatsiyalari.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari

Valyuta va valyuta kursi haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan valyuta operatsiyalarini o'tkazishning huquqiy asoslari va tartibi. Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari. Valyuta arbitrajini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad. Valyuta operatsiyalarini turlari (svop, spot, forvard va boshqalar) va uning o'ziga xos xususiyatlari. Valyuta holati haqida tushuncha. Situatsion masala echish.

Tijorat banklarining foiz siyosati

Tijorat banklari faoliyatida kredit uchun foiz tushunchasi. Kredit narxi. Foiz stavkalari va uning turlari. Banklarning kredit va depozitlari bo'yicha foiz hisoblash tartibi. Tijorat banklari foiz siyosati*. Marja va uning hisoblanishi*. Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlarni o'stirmaslik siyosati to'g'risida tushuncha va uni amalga oshirish tartibi. Masalalar echish.

Bank risklari va ularning turlari

Bank faoliyatida risk tushunchasi va uning turlari. Kredit riski, foiz riski, valyuta riski, inflyatsiya riski, passiv va aktivlar riski. Kredit riski va uni hisoblash usullari*. Tijorat banklari tomonidan risklarni boshqarish* yo'llari va uning ahamiyati. Tijorat bankining kredit portfelining sifat jihatdan tahlili va uni diversifikatsiyalash. Ish o'yini, situatsion masala echish.

Bankning yangi xizmatlari va innovatsion moliyaviy instrumentlari

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan bankning yangi xizmat turlarini tashkil etilishi va uning yo'nalishlari. Plastik kartochkalar haqida tushuncha va uning tarixi. O'zbekiston Respublikasida plastik kartochkalarni qo'llash tartibi, turlari va uning zaruriyati*. Tijorat banklarida qimmatliklarni saqlash. Banklarning forfeyting operatsiyalari. Optsionlar, fyucherslar, svop operatsiyalari. Mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko'rsatish.

Kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ro'yxati

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni takomillashtirish orqali noto'lovlarni qisqartirish
2. Emissiya kassa operatsiyalarining tashkil etilishi va hisobi
3. Bank ichki nazorati, uning tashkil etilishi va ahamiyati
4. Bank tizimida yangi texnologiyalar qo'llanilishi va ularning ahamiyati
5. Bank hisobvarag'i bo'yicha shartnoma, uning tuzilishi va ahamiyati
6. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va uning samaradorligi

7. Uzoq muddatli kreditlash operatsiyalari va ularning hisobi
8. Bank daromadlari va ularni ko'paytirish yo'llari
9. Davlat byudjeti va uning kassaviy ijrosi bo'yicha operatsiyalari
10. Markaziy bankning hukumat bilan munosabati va uning zaruriy asoslari
11. Bank va mijozlarning sherikchilik munosabatlari va ularni mustahkamlash
12. Banklarda hisob-operatsion ishlarining tashkil etilishi va ularni takomillashtirish yo'llari
13. Bank xarajatlari, ularning strukturasi va hisobi
14. Bank ustav kapitali, uning shakllanishi bilan bog'liq operatsiyalarning hisobi
15. Plastik kartochkalar va ularning to'lov tizimidagi o'rni
16. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ipoteka kreditining tutgan o'rni va uni rivojlantirish istiqbollari
17. Tijorat banklarini marketing strategiyasi orqali boshqarish
18. O'zbekiston Respublikasida banklarni xususiylashtirish va aktsiyalashtirish orqali bank tizimini rivojlantirish istiqbollari
19. Lombard krediti. Uning tavsifi va uni rivojlantirish
20. Milliy valyuta konvertatsiyasi va uni joriy qilish yo'llari
21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati, uning makroiqtisodiy ahamiyati
22. O'zbekiston Respublikasi banklarida audit o'tkazish tartibi va uning ahamiyati
23. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari va ularni tugatish tartibi
24. Tijorat banklarida kreditlash jarayoni tahlili
25. Bozor iqtisodiyotida moliya-kredit siyosatini tutgan o'rni
26. Xalqaro transport operatsiyalarini kreditlash masalalari
27. Xalqaro moliya bozorlardagi operatsiyalar
28. Xalqaro kreditning bahosi va ungi ta'sir qiluvchi omillar
29. Xedjirlash, uning valyuta munosabatlari tashkil qilishdagi roli
30. O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorining shakllanishi
31. Xalqaro faktoring va forfeyting tashqi savdoni kreditlashning nisbatan yangi shakllari sifatida
32. Pul almashtirish shaxobchalari faoliyatini tashkil qilish va takomillashtirish
33. O'zbekistonda valyuta bozori va valyuta operatsiyalari
34. Bank valyuta bozorining tashkilotchisi sifatida
35. Valyuta operatsiyalarining menedjmenti va uni takomillashtirish
36. Valyuta risklarini sug'urtalash
37. O'zbekiston kapitalini chet el iqtisodiyotiga qo'yish imkoniyatlari

38. Eksport qilingan tovarlar va ko'rsatilgan hujjatlar uchun hisoblarda hujjatlashtirilgan akkreditiv qo'llash
39. Import qilingan tovarlar va xizmatlar bo'yicha hisoblarda hujjatlashtirilgan akkreditiv qo'llash
40. Xalqaro va mintaqaviy valyuta, kredit va moliya institutlarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni
41. Xalqaro valyuta, kredit, moliya bozorlari va unda O'zbekistonning ishtirokini ta'minlash masalalari
42. Jahon oltin bozorlari va oltin bilan operatsiyalari
43. Xalqaro valyuta, hisob-kitob operatsiyalarida axborot-texnologiyalari
44. Evropa valyuta tizimi va Evroittifoqining muammolari
45. Xalqaro tijorat krediti va uni sug'urtalash masalalari
46. Milliy valyuta kursi va uni barqarorlashtirish muammolari
47. Iqtisodiyotga chet el investitsiyasini jalb qilish yo'llari
48. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlashning xususiyatlari
49. Loyihalarni moliyalashtirishda chet el kapitalidan foydalanish imkoniyatlari
50. Kichik va o'rta biznesni chet el kredit liniyalari hisobidan kreditlash
51. Kichik va o'rta biznesni ichki va tashqi manbalar hisobidan kreditlash
52. Xalqaro moliya tashkilotlarining kichik va o'rta biznesni kreditlashdagi roli
53. Kichik va o'rta biznes loyihalarini chet el investitsiyasidan moliyalash
54. Kreditlash va uning samaradorligini oshirish yo'llari
55. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati, uning makroiqtisodiy ahamiyati
56. Tadbirkorlik faoliyati va kreditning roli
57. Pul oqimi va moliyaviy tahlil qilishning ahamiyati
58. Mijozning kreditlashda moliyaviy tahlilning o'rni
59. Xo'jalik sub'ektlarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari
60. Fyuchers operatsiyalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari
61. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda banklarning roli
62. Bank kapitali va uning samaradorligini oshirish yo'llari
63. Tijorat banklari moliyaviy resurslari va ularni boshqarish usullari
64. Nobank muassasalari va ular faoliyatining xususiyatlari
65. Tijorat banklari kredit operatsiyalari auditi
66. Majburiy zahiralarning fondining tashkil etilishi va ishlatilishi
67. Kassa aylanishining taxminiy hisob-kitoblarini tuzishni tashkil qilish
68. Diversifikatsiya va uni bank faoliyatida qo'llash

69. Fond birjasi va depozitariylar faoliyati bilan bank tizimining o'zaro hamkorlik darajasi va istiqbollari
70. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha bank operatsiyalari, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi
71. O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishini kreditlash va uning istiqbollari
